

ESG PRINCIPLES - A DRIVER OF SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT AND BUSINESS TRANSFORMATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES

 <https://timeedu.uz/>

 24.10.2025 y.

2-TO'PLAM
2-MAXSUS SON/2025



+998 95 651 90 00
journals@timeedu.uz

“ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami. -T.: TMII, 2025. – 752 bet.

Ushbu to‘plamda mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida mavjud sanoat ishlab chiqarishni raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish orqali ishlab chiqarish sanoatini “drayver” sohaga aylantirish istiqbollari hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot materiallari keltirilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan huquqiy-me’yoriy xujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Сборник научных статей и тезисов Международной научно-практической конференции на тему «Принципы ESG – драйвер устойчивого развития регионов и трансформации бизнеса». – Т.: ТМII, 2025. – 752 с.

В сборнике представлены материалы научных исследований, посвященные устойчивому экономическому развитию нашей страны, диверсификации производства, адаптации к изменению климата и смягчению его последствий, повышению эффективности природопользования, обеспечению устойчивого развития регионов и промышленных предприятий на основе принципов ESG, внедрению эффективных экономических механизмов поддержки «зеленой» экономики в регионах, трансформации деятельности крупного и среднего бизнеса и повышению его конкурентоспособности, управлению отходами и развитию циклической экономики на промышленных предприятиях, охране окружающей среды на основе «зеленых» технологий, искусственному интеллекту, перспективам превращения обрабатывающей промышленности в «драйверную» отрасль за счет ускорения процессов цифровой трансформации действующего промышленного производства в условиях цифровой экономики, а также различным направлениям обеспечения устойчивого экономического роста.

Авторы сами несут ответственность за содержание представленных в сборнике материалов, достоверность содержащихся в нем статистических данных и представленных нормативно-правовых документов, а также за критические высказывания и предложения.

Tahrir hay’ati: i.f.n., dotsent Sh.K. Narbayev

i.f.n., professor I.S. Xotamov

i.f.d., professor Sh.I. Alibekov

i.f.d., professor V.P. Kuznetsov

i.f.f.d., dotsent N. Nosirova

i.f.f.d., dotsent D. Mamasoatov

assis. G. Axmedova

assis. A. Qudratxo‘jayev

Taqrizchilar: i.f.d., professor N.M. Maxmudov

i.f.d., professor A.A. Yadgarov

KIRISH SO‘ZI

ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI XALQARO ANJUMAN ISHTIROKCHILARI, AZIZ MEHMONLAR!

Sizlarni Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti hamda O‘zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashi tomonidan tashkil etilayotgan mazkur Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda qutlashdan mamnunmiz!

Qadrli anjuman ishtirokchilari, bugun biz “ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazmoqdamiz. Bugungi anjumanning asosiy maqsadi mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini chiqur tahlil qilgan holda ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan qaror va farmonlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu anjuman mavzusining naqadar dolzarbligini anglatadi. Yurtboshimiz tomonidan 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlanishi hamda ushbu yo‘nalishda qabul qilingan Davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda ma’lum ma’noda anjumanning ham o‘z hissasi bo‘ladi deb umid qilamiz.

Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

Ilmiy samaradorlik – anjumandan kutilayotgan ilmiy-amaliy natija mamlakatimiz hududlarida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, sanoat korxonalarining atrof-muhitga bo‘lgan e’tiborini yanada kuchaytirish, biznes strategiyalarini takomillashtirish, shu bilan birga hududlar darajasida barqaror rivojlanishni amalga oshirish darajasini tahlil qilish, “atrof-muhit, jamiyat, boshqaruv” (ESG) tamoyillariga mos holda faoliyat ko‘rsatishlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlarini tahliliy o‘rganish asosida olingan natijalarni umumlashtirib ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy samaradorlik – muhokama qilinadigan masalalarning har birida ijtimoiy samara alohida o‘rin egallaydi. Chunki ESG-tamoyillarining asosiy xususiyati ham ijtimoiy sohaga yuqori darajada e’tibor qaratilishidadir. Shu jihatdan ijtimoiy samarani iqtisodiy jihatdan baholash, bu yo‘nalishda mavjud amaliyotlarni ilmiy tahlil qilishning konseptual yondashuvlarini ishlab chiqishga, hududlarda va biznes sohasida izchil islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, barqaror daromad manbalarini shakllantirish, tabiiy resurslar tejamkorligiga erishish asosida kelajak avlod uchun zahiralarini saqlab qolish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik - iqtisodiy faoliyatning faol ishtirokchilaridan biri ishlab chiqarish korxonalaridir, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sezilarli darajada uglerod izi qoldiriladi. Shaffof va ekologik toza ma’lumotlarni taqdim etish atrof-

muhitni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya qilish uchun zarurdir. Iqtisodiy samaradorlik jihatidan mavzu doirasida muhokama qilinadigan har bir masala katta ahamiyatga ega. Birinchidan, sohada qonunchilik bazasini mustahkamlash; ikkinchidan, korxonalarda ESG tamoyillarini joriy yetishning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish; uchinchidan, hududlarning barqaror rivojlanishi uchun mavjud salohiyatini baholash va shu asosda sohalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining vujudga kelishi, to'rtinchidan, korxona va tarmoqlarni rivojlantirishda "yashil" investitsiyalarni jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanishga keng yo'l ochiladi.

Albatta bunday o'zgarishlar, texnologik taraqqiyotga hamohang ravishda, qo'shimcha imkoniyatlarni ochishga va rivojlanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Lekin shu bilan bir qatorda, iqtisodiyotni raqamlashtirish va bunday sharoitda biznesni rivojlantirish jarayonlarida, o'ziga xos muammolar va turli savollar ham yuzaga kelmoqda.

Bunday masalalarni o'rganib, uning yechimlarini topish uchun Toshkent menejment va iqtisodiyot institutining professor-o'qituvchilari tomonidan ham turli ilmiy tadqiqotlarni olib borish yo'lga qo'yilgan. Ularning tadqiqotlari natijalaridan - o'quv jarayonlarida, ta'lim sifatini oshirish maqsadlarida, keng foydalaniladi.

Bu o'z navbatida, institutda menejment, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalarida tayyorlanadigan malakali mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham oshirishga hizmat qiladi.

Bundan tashqari, institutda innovatsion dasturlar va loyihalar orqali talabalarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularda raqamli iqtisodiyot va global biznes muhitida raqobatbardosh bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazishda hamkorlik qilayotgan O'zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashiga, anjumanda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, BMT ning UNDP loyihasi vakillariga, Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi Kozma Minin nomidagi Nijniy Novgorod davlat pedagogika universiteti, Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Shimoliy-Kavkaz instituti (filiali), Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Rostov instituti (filiali), Kazpotrebsoyuz Karaganda universiteti, Kyungdong Universiteti (Koreya Respublikasi), tashkilot va korxonalarining mutaxassislari, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarga o'z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz.

Bugun sizlarning e'tiboringizga taqdim etiladigan taqdimotlar va fikrlar - bizni zamonaviy iqtisodiyotning yangi talablariga mos keladigan biznes modellarni yaratishga ilhomlantiradi.

Biz bu jarayonda, o'z tajribamizni almashish va birgalikda muammolarni hal qilish uchun yangi g'oyalarni kashf etishni maqsad qilamiz.

Umid qilamanki, anjumanimiz samarali va foydali bo'ladi.

Har biringizning ishtirokingiz va hissangiz bu jarayonda juda muhim.

Keling, birgalikda yangiliklarga ochiq bo'lib, innovatsion yechimlarni izlaylik!

Bugungi anjuman ishiga va unda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori

X. Axmedov

MUNDARIJA / ОГЛАВЛЕНИЕ

I SHO‘BA. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH, IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH VA ULARNI YUMSHATISH, TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	11
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI XALQARO STANDARTLAR TIZIMIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI	
Abdulloyev A.J., N.K.Sharapova	11
АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ К ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ И РЕАЛИЗАЦИИ ESG-КОНЦЕПЦИИ	
Кузнецов В.П., Назарова Е.Н.	23
ЭКОНОМИКО-ПРАВОВОЙ КОНТРОЛЬ КАК МЕТОД ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	
Алибеков Ш.И.	33
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАРКИБИНИ БОЗОР КОНЪЮНКТУРАСИ ЎЗГАРИШИГА МОС ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	
Чариев К.А., Абдулазизов Ш.А.	37
BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	
Asamxodjayeva S.Sh.	48
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	56
МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ В КОМПАНИЯХ	
Киясов Б.Н.	60
РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ КРІ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ СОТРУДНИКОВ НА ПРЕДПРИЯТИИ	
Ўқбар Айдын	66
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIY “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
Rashidov J.X.	72
“QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH”	
Alimov O.S.	82
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MAKROIQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH TANHILI	
Nazirova S.X.	89
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПРОИЗВОДСТВА ОДЕЖДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	
Ахмедова Г.А.	99
ОПТИМИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ В НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ КОМПАНИИ «ГРУППА ГАЗ»	
Лаврентьева Е.В., Пахомичева А.С.	107
БЕРЕЖЛИВОЕ ПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ	
Лаврентьева Е.В., Султанова Л.Л.	113
ТЕНДЕНЦИИ И ПРОБЛЕМЫ РОССИЙСКИХ РЕГИОНОВ ПО ВНЕДРЕНИЮ ESG – СТАНДАРТОВ	
Набоков В.И., Некрасов К.В.	121
ЎЗБЕКИСТОНДА КИРУВЧИ ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРАТИ	
Рискулов Р.Б.	125
KORXONADA BREND EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI	
Sa’dulloyev H.I.	134

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI VA "RAQAMLI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI	
Sharipova Sh.B.	140
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	
Sharipov I.B.	147
РАЦИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕРРИТОРИИ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ	
Ашуров А.Ф.	155
II SHO'BA. "YASHIL" TEXNOLOGIYALAR, SUN'IY INTELEKT VA ENG YAXSHI TEXNOLOGIYALAR (BAT) ASOSIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH	164
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	
Yuldashev I.B.	164
ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ «УНИВЕРСИТЕТ 4.0»: ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ НИЗКОУГЛЕРОДНОГО ПЕРЕХОДА	
Кузнецова С.Н., Цыбуцинина И.Е., Фролов Ю.С., Горев Н.А.	168
SUN'IY INTELEKT VA REAL VAQT TIZIMLARI ASOSIDA HUDUDIY AVTOMOBIL YO'LLARI MUHANDISLIK INSHOATLARINI LOYIHALASH JARAYONINI MODELLASHTIRISH	
Norinov M.U., Zikrayev A.A.	177
REAL VAQT TIZIMLARI VA SUN'IY INTELEKT ASOSIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AVTOMATLASHTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YO'NALISHLARI	
Ergashev O.M.	186
ИКЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРОИТИДА АГРАР СОҲАНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА СУҒУРТА МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ	
Вахобов А.Р.	195
ИНСОН ВА АТРОФ-МУҲИТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ.	
Йўлдошев Н.Қ.	202
SUN'IY INTELEKTDAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASHDA FOYDALANISH	
Nasriddinov I.X., Tulyaganov E.J.	209
O'ZBEKISTONDA KO'ZI OJIZ SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR	
Isayev K.A., Qurbanov A.G'.	215
ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА УЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ЎРТАСИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ	
Худайбердиев Ў.Э.	221
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH	
Kambarova Sh.M.	228
BARQAROR INVESTITSIYALAR VA ESG ME'ZONLARI: NAZARIY TAHLIL	
Maxmasobirova N.U.	235
"O'ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA ESG TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN BOSHQARUV MECHANIZMLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH"	
Rusatamov Z.X.	241
THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS IN CORPORATE GOVERNANCE	
Sadikova M.A.	249
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI	
Daminova O.M.	254
КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	
Нарзуллаева Г.С., Сайфуллаева М.И., Носирова Н.Д.	262
YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	
Yakubova U.A.	278

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY–INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	
Qo‘chqorova M.U.	284
INKLYUZIV IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI	
Qurbanov A.G‘.	291
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI	
Murtazaev O.O.	298
SANOAT KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI	
Ismatulloeva M.F.	304
TRANSPORT XIZMATLARINI IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA VAZIFALARI	
Karimova Sh.U.	311
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ АГРОБИЗНЕСА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ	
Адиллов Ш.Ш.	315
III SHO‘BA. ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA HUDUDLAR VA SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI.....	325
“SANOAT-5.0” VA BARQARORLIK: ASOSIY TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR	
Xotamov I.S., Qudratxo‘jayev A.K.	325
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	
Мырзалиева Г.А., Байкенжеева Д.Б.	334
QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI	
Asamxodjayeva Sh.Sh., Qodirov S.Q.	341
ESG TAMOIYILLARI HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATDA: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI PARADIGMASI	
Zaynutdinov I.S.	348
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA SANOAT CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA‘SIRI	
Yusupov U.M.	353
AGLOMERATSIYALARNING “YASHIL” IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI	
Mardonov Sh.	362
O‘ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT SAMARADORLIGIGA EKO-MARKETING TA‘SIRINI TAHLIL QILISHDA SUN‘IY INTELLEKT VA MASHINAVIY O‘RGANISHGA ASOSLANGAN YANGI EKONOMETRIYA YONDASHUVI	
Usmonova Diyora Mahmud qizi	367
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI TUTGAN O‘RNI.....	379
Matchanova Ma‘rifat Ikramovna.....	379
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	384
AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA IKKINCHI DARAJALI YETKAZIB BERUVCHILARNING O‘RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	
Qobilov R.Sh.	388
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В КОМПАНИЯХ	
Аділ Ф.С.	392
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ И МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ В КОМПАНИЯХ	
Жолдасова А.Б.	397
ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗРЕШЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫХ КОНФЛИКТОВ	
Кемпірәлі Е.Қ.	404
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ: ШАГИ К ИХ АВТОМАТИЗАЦИИ	
Пернебаев Е.Б.	409
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ НА ПРЕДПРИЯТИИ	

Рахатова Ж.Н.	414
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO'NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	
Musulmonova Sh., Hikmatov M.	422
SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING MILLIY VA XORIJIY TAJRIBASI	
Toxirov J.M.	426
GREEN CAR: QISHLOQ XO'JALIGIDA NAZORATNI YENGILLASHTIRUVCHI AQLLI ROBOT	
Qurbonov Sh.B.	434
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING TAHLILI	
Baxromov A.B.	437
XALQARO AUDIT STANDARTLARIGA MUVOFIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI YTKAZISH MASALALARI	
Ahmadjonov A.K.	443
ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ: ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАР, ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	
Ashurov Z.A.	448
IV SHO'BA. KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	459
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Mamasoatov D.R.	459
РЕСТРУКТУРИЗАЦИЯ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА	
Abduraimova N.P.	464
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI	
Suyunov Y.B.	479
АРАБСКАЯ РЕСПУБЛИКА ЕГИПЕТ НА ПУТИ К УСТОЙЧИВОМУ ЭКОНОМИЧЕСКОМУ РОСТУ	
Ziyadullaeva L.C.	487
THE IMPACT OF THE CHINA-KYRGYZSTAN-UZBEKISTAN RAILWAY ON UZBEKISTAN'S ECONOMIC DEVELOPMENT: MECHANISMS, EFFECTS, AND POLICY RESPONSES	
Ye Maoqing.	492
XORIJIY INNAVATSION INVESTITSİYALARNI JALB ETISH DOLZARBLIGI	
Tulyaganov E.J., Ubaydullayeva G.E.	502
QURG'OQCHIL MINTAQALARDA KICHIK AGROBIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Qulliyev O.A.	507
BANKLARNING MOLİYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KAPITAL VA AKTIVLAR RENTABELLIGINING AHAMIYATI	
Alimjanova D.S.	516
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ В БИЗНЕС-СФЕРЕ	
Raxymjanova A.A.	519
MAMLAKATIMIZDA EKSPORT JARAYONLARINI BARQARORLASHTIRISH OMILLARI	
Abdvaliyev Sh.X.	524
SANOAT KORXONALARIDA HR MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI	
Toshtemirov S.G'.	534
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	
Abdulfattoxova H.	539
AVTOMATLASHTIRILGAN BUYUMLARNI SARALOVCHI ROBOTLAR	
G'ulomov X.A.	545

APPLICATION OF ESG PRINCIPLES AS A WAY TO INCREASE COMPETITIVENESS IN THE MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES	
Kurbanov U.A., Kurbanova Sh.Y., Alimova D.T.	548
ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА.	
Фарходова Ш.Ш.	554
СОВРЕМЕННЫЕ НОВЕЙШИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ И БИЗНЕСЕ: РОЛЬ В СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РК	
Агабекова Ш.Н., Бокушева С., Байкенжеева Д.Б.	557
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕГИОНАХ КАЗАХСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	
Жартай Ж.М., Саттыбаева Д.М., Рахимова А.Н., Никкель Л.Д.	565
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR	
Vahangurov O.O.	571
O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH YO‘LLARI VA USTUVORLIKLARI	
Lugmanov B.M.	577
KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIVAVIY RESURLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH	
Arziyev S.	585
V SHO‘BA. ESG STANDARTLARIGA MOS KELADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XALQARO MOLIVA INSTITUTLARI	590
SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISHNING STRATEGİK YO‘NALISHI SIFATIDA	
Sobirov A.A.	590
АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ	
Dusmuratov P.D., Nosirova N.J.	597
ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ	
Kim L.N., Eltaev N.K.	606
КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ	
Remizova I.V.	614
TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIVALASHNING ILG‘OR XORIY TAJRIBALARI	
Shodiyev Sh.S.	620
ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ	
Usmanova Yu.	623
YASHIL ENERGETIKA SOHASIDA INVESTITSIYALARNING ROLI	
Primov S.F.	632
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАМКАХ ЗЕЛЕННЫХ РАБОЧИХ МЕСТ	
Xuvaydulloeva I.X.	638
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
Primov S.F.	642
TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATIDA UCHRAIDIGAN RISKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	
Xusanboev A.F.	647
ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ	
Saydulloev Sh.	653
RAHBAR KADRLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	
Olimov S.A.	660
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI	
Kurbanova Sh.Y., Yusupov A.A.	667
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ	

Koptaeva G.I., Bekebaeva M.O.	672
HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	
Toshboyev M.M.	680
QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING AHAMIYATI	
Yuldasheva D.K.	689
O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI	
Mamatov M.N.	699
RAQAMLI-ELEKTRON PULLAR VA KRIPTOVALYUTALAR FARQLARI	
Matchanov T.M., Matchanova M.I.	703
AXBOROT TIZIMLARI XUSUSIYATLARI	
Norinov M.U., Abdulxamid A.I., Oripov O.I., Madaminov F.R.	709
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH SANOATI VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH YO'LLARI	
Tursunqulov Sh.R.	715
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH MEXANIZMLARI	
Abduraxmanova Z.T., Rustamova M.M.	722
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SANOATDA EKOLOGIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH	
Hasanov H.X.	727
SHADOW ECONOMY EXPOSED: THE HIDDEN FORCES SHAPING ECONOMY.	
Arziev Sh.R.	735
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI	
Axmedova D.B.	741

5. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. "Hududiy rivojlanish dasturlari va investitsiya loyihalari hisobotlari (2021–2024)". – T., 2024.

6. World Bank. Uzbekistan Country Economic Update 2024. – Washington, D.C., 2024.

7. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). "O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha milliy hisobot". – Nyu-York – Toshkent, 2023.

SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING MILLIY VA XORIJIY TAJRIBASI

Toxirov Javohir Mansurbek o'g'li

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti magistranti

E-mail: javohir.toxirov.2990@gmail.com

Orcid: [0009-0000-3822-3128](https://orcid.org/0009-0000-3822-3128)

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarida atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. ESG standartlarining sanoat tarmoqlariga ta'siri, ularni integratsiyalash amaliyoti hamda investitsion jozibadorlikdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ilg'or xalqaro tajriba asosida O'zbekiston sanoat korxonalarida ESGni qo'llash imkoniyatlari baholanadi

Kalit so'zlar: ESG tamoyillari, sanoat korxonalari, ekologik boshqaruv, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, xalqaro tajriba, investitsiyalar, sanoat siyosati

Аннотация. В данной статье рассматривается национальный и международный опыт внедрения принципов ESG (экология, социальная ответственность и корпоративное управление) в промышленных предприятиях. Анализируется влияние ESG-стандартов на промышленные отрасли, практика их интеграции, а также их роль в инвестиционной привлекательности. Кроме того, на основе передового международного опыта оцениваются возможности применения ESG в промышленных предприятиях Узбекистана.

Ключевые слова: Принципы ESG, промышленные предприятия, экологическое управление, социальная ответственность, корпоративное управление, устойчивое развитие, международный опыт, инвестиции, промышленная политика.

Abstract. This article analyzes national and international practices of implementing ESG (Environmental, Social, and Governance) principles in industrial enterprises. It explores the impact of ESG standards on industrial sectors, their integration practices, and their role in investment attractiveness. Furthermore, based on leading international experience, the potential for applying ESG in Uzbekistan's industrial enterprises is evaluated.

Keywords: ESG principles, industrial enterprises, environmental management, social responsibility, corporate governance, sustainable development, international experience, investments, industrial policy.

Kirish

Jahonda ro'y berayotgan globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sanoat sektorining ahamiyatini tobora oshirmoqda. Ishlab chiqarish sanoati jahon iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu sektor millionlab insonlarni ish bilan

ta'minlabgina qolmay, boshqa ko'plab tarmoqlar rivoji uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Sanoatning innovatsiyalarni joriy etish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini oshirishdagi o'zni tobora ortib bormoqda.

Sanoatning tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sharoitida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG – Environmental, Social, Governance) tamoyillarining joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki barqaror rivojlanish siyosatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. ESG tamoyillari orqali sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, xodimlar salomatligi va xavfsizligini ta'minlash, hamda boshqaruvda ochiqlik va halollik mezonlarini joriy etish kabi omillar global miqyosda dolzarb masalaga aylangan.

Xususan, 2023-yilda 96% yirik xalqaro kompaniyalar ESG hisobotlarini e'lon qilgan bo'lib, ularning 60% dan ortig'i bu tizimni strategik qarorlar qabul qilishda asosiy mezon sifatida ko'rib chiqmoqda, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar sanoat korxonalarida ISO 14001, ISO 50001, va GRI kabi xalqaro standartlar asosida ekologik boshqaruv tizimlarini keng joriy etgan.

O'zbekistonda ham barqaror sanoat siyosati doirasida ESG tamoyillarini joriy etishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu borada "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", "2023–2026 yillarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash dasturi" va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ekologik samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish va energiya tejamkorlikni ta'minlash kabi yo'nalishlar belgilab olingan. Jumladan, Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmonida sanoatni modernizatsiya qilishda ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, xorijiy investorlar bilan ESG doirasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Shunday qilib, sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini yanada chuqurlashtirish, milliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish, hamda xalqaro standartlar asosida barqarorlikka erishish yo'llarini o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Ishlab chiqarish jarayonlarida ESG tamoyillarini joriy etish, ayniqsa, ekologik jihatlar bo'yicha so'nggi yillarda ko'plab xalqaro ekspert va iqtisodchilar tomonidan chuqur tadqiq etilmoqda. Bu tamoyillar korxonalar faoliyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishi xavfini kamaytirish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili "Matilda Dimovska" ESG tamoyillarining dolzarbligiga to'xtalar ekan, quyidagicha ta'kidlaydi: "ESG tamoyillari ilgari "yaxshi bo'lsa, bo'ldi" deb qaralgan bo'lsa, hozirda bu 'majburiy' bo'lib bormoqda. Bu o'zgarish nafaqat yirik kompaniyalar,

balki kichik va o'rta bizneslar uchun ham dolzarbdir"

Mashhur iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori "Paul Krugman" esa ekologik barqarorlikni ta'minlashda ESG tamoyillarining ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: "Iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar global iqtisodiyotga jiddiy tahdid solmoqda. ESG tamoyillarini joriy etish orqali kompaniyalar bu tahdidlarga qarshi kurashishda faol rol o'ynashi mumkin"

Boshqa yirik investorlar ham ekologik barqarorlikni iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida ko'rmoqda. Masalan, "Jeremy Grantham" (GMO kompaniyasi asoschisi) ESG yondashuvidagi «E» – ekologiya muhimligini shunday ifodalaydi: "ESG konferensiyalarida men shunday deyman: 'S va G ajoyib, lekin E – bu omon qolish masalasi.' Agar siz 'E'ni e'tiborsiz qoldirsangiz, siz tarixdagi eng katta sanoat qiymati yo'qotilishini ko'rishingiz mumkin"

Yana bir taniqli jurnalist va muallif "Thomas L. Friedman" o'zining "Hot, Flat, and Crowded" asarida quyidagicha deydi: "Kun oxirida, agar biz tabiatga e'tibor bermasak, hech qanday investitsiya, toza energiya yoki energiya samaradorligi tabiatni saqlab qololmaydi. Tabiat bizga bepul beradigan toza havo, suv, go'zal manzaralar kabi boyliklarni qadrlashimiz kerak"

Boshqa tomondan, ESG tamoyillari kompaniya faoliyatini ekologik barqarorlik bilan birgalikda moliyaviy jihatdan ham mustahkamlaydi. "Sarah Walker-Smith" (Ampa Group bosh direktori) bunga misol qilib shunday deydi: "ESG tamoyillarini tashkilotning asosiy faoliyatiga integratsiya qilish orqali kompaniyalar nafaqat barqarorlikni ta'minlaydi, balki moliyaviy samaradorlikni ham oshiradi. Bu yondashuv kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi va uzoq muddatli muvaffaqiyatga olib keladi"

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda sanoat korxonalarida ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) tamoyillarini joriy etish bo'yicha milliy va xorijiy tajribalarni o'rganish uchun tizimli yondashuv, taqqoslash va tahliliy metodlar qo'llanildi. Maqolada xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, OECD, Morningstar va boshqalar) tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar, hisobotlar hamda ESGni qo'llashga oid amaliy holatlar tahlil qilindi. Milliy tajriba esa O'zbekiston sanoat korxonalarining ESG standartlarini joriy etishdagi real amaliyotlari asosida baholandi. Shuningdek, sifatli tahlil (qualitative analysis) orqali ilg'or xorijiy tajribalar asosida ESG tamoyillarini O'zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar

ESG (Environmental, Social, Governance) – bu atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv mezonlarini o'z ichiga olgan yondashuv bo'lib, kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

E – Ekologik (Environmental). Ekologik mezonlar kompaniyalarning atrof-

muhitga ta'sirini baholaydi. Bu omillar ichida eng dolzarblaridan biri – “suv resurslarining tanqisligi” 1-chi rasmda ko'rsatilganidek, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Afrika va Janubiy Amerika hududlarida “Baseline Water Stress” (asosiy suv bosimi) darajasi juda yuqori. Bu esa kompaniyalar zimmasiga suvdan foydalanishning barqaror, ekologik toza mexanizmlarini ishlab chiqish majburiyatini yuklaydi.

Kompaniyalar orasida bu borada Kering Group (Fransiya) yetakchi sifatida ajralib turadi. Ushbu kompaniya 2035-yilgacha “Water Stewardship Strategy” (Suv resurslarini boshqarish strategiyasi) orqali global miqyosda suv tanqisligini kamaytirishni maqsad qilgan. Kering direktori Marie-Claire Daveu bu haqda shunday deydi: “Suv – bu bizning eng muhim tabiiy resurslarimizdan biri. Uning qiymati moliyaviy emas, balki yashash uchun zarur bo'lgan hayotiylikdir. Biz hozir choralar ko'rmasak, sanoatimizning kelajagi xavf ostida qoladi.”

S – Ijtimoiy (Social). Ijtimoiy mezonlar kompaniyaning xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar va jamiyat bilan munosabatlarini baholaydi. Bu, masalan, mehnat sharoitlari, inson huquqlari, xilma-xillik va inklyuziya, hamda iste'molchilar xavfsizligi kabi omillarni o'z ichiga oladi.

McKinsey hisobotiga ko'ra, ESG tamoyillariga amal qiluvchi kompaniyalar xodimlarni jalb qilish va ushlab qolishda yuqori ko'rsatkichlarga ega, chunki ko'proq mutaxassislar o'z shaxsiy qadriyatlariga mos kompaniyalarda ishlashni xohlashadi.

G – Boshqaruv (Governance). Boshqaruv komponentasi korxonalarning rahbariyati, nazorat mexanizmlari, axloqiy tamoyillar, korrupsiyaga qarshi siyosat, aktsiyadorlar huquqlari va shaffoflik darajasiga doir yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu bo'lim kompaniya ichki tuzilmasining qanday boshqarilishini, qanday strategik qarorlar qabul qilinishini, manfaatlar to'qnashuvi qanday boshqarilishini hamda rahbarlar mas'uliyatini qanday ta'minlanishini baholaydi. Larry Fink – BlackRock kompaniyasi bosh direktori (dunyoning eng yirik aktivlar boshqaruvchisi), boshqaruv masalalarini shunday izohlaydi: “ESGning 'G' – bu bizning ishimizning asosi. Agar boshqaruv ishlamasa, atrof-muhit bo'yicha majburiyatlar va ijtimoiy tashabbuslar samarasiz bo'ladi.”

“KPMG 2024 Governance Trends” hisobotida keltirilishicha, kompaniyalarning 79% boshqaruv faoliyatini kuchaytirish uchun AI texnologiyalarini audit va rejalashtirishda qo'llay boshlagan.

2024-yilda “Xalqaro barqarorlik hisobot standartlari kengashi (ISSB)” tomonidan ishlab chiqilgan “IFRS S1 va S2” standartlari kuchga kirdi. Bu standartlar korxonalarning barqarorlikka oid moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilishini talab qiladi. Hozirda 20 dan ortiq yurisdiksiyalar, jumladan Kanada, Nigeriya, Singapur, Avstraliya va Buyuk Britaniya ushbu standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilmoqda.


Yevropa Ittifoqida esa “Korporativ barqarorlik hisobotlari direktivasi (CSRD)” kuchga kirib, 50,000 dan ortiq kompaniyani ESG hisobotlarini taqdim etishga majbur qilmoqda.

“KPMG”ning 2024-yilgi global ESG due diligence tadqiqotiga ko‘ra Investirlardan 80% ESG omillarini M&A qarorlarida muhim deb hisoblaydi. 55% respondentlar yuqori ESG yetukligiga ega aktivlar uchun 1–10% ko‘proq to‘lashga tayyor. 45% investorlar ESG tekshiruvi natijasida muhim kelishuvlarga ta’sir ko‘rsatgan holatlarga duch kelgan.

“NYU Stern Center for Sustainable Business” tadqiqotiga ko‘ra, ESGga sodiq kompaniyalar kuchliroq moliyaviy natijalarga erishmoqda. Bundan tashqari, aniq va shaffof ESG hisobotlari kompaniya obro‘cini oshirib, tartibga soluvchilar va aktsiyadorlar tomonidan da’volarning oldini olishga yordam beradi.

Global sustainable bond issuance to remain strong in 2025

S&P Global Ratings estimates total global sustainable bond issuance to reach \$1trillion



Source: Environmental Finance Bond Database, S&P Global Ratings

Copyright © 2025 by Standard & Poor's Financial Services LLC. All rights reserved.

Manba: Environmental Finance Bond Database, S&P Global Ratings

S&P Global Ratings tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, global barqaror obligatsiyalar bozori so‘nggi yillarda sezilarli o‘shishni qayd etdi. 2020-yilda umumiy emissiya hajmi taxminan 650 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1.1 trillion dollardan oshib ketdi. Bu bir yil ichida deyarli 70% o‘shishni anglatadi.

Keyingi yillarda ham o‘shish tendensiyasi davom etdi. 2022-yilda emissiya hajmi biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da (970 milliard dollar atrofida), 2023-yilda bozor yana tiklanib, 1 trillion dollardan oshdi. 2024-yilda esa o‘shish davom etib, emissiya hajmi 1.05 trillion dollarga yaqinlashdi.

Turli xil barqaror obligatsiyalar turlari o‘rtasida yashil obligatsiyalar doimiy ravishda eng katta ulushni egallab kelmoqda. 2020-yilda yashil obligatsiyalar emissiyasi umumiy hajmining yarminidan ko‘prog‘ini tashkil etgan bo‘lsa, bu

tendensiya keyingi yillarda ham saqlanib qoldi. Ijtimoiy va barqarorlik obligatsiyalari ham sezilarli hajmda emissiya qilinmoqda va ularning ulushi yillar davomida o'sib bormoqda. Barqarorlik bilan bog'langan va o'tish davri obligatsiyalari hozircha bozorning kichikroq segmentini tashkil etsa-da, ularning o'sish sur'atlari ham e'tiborga molik.

S&P Global Ratings prognoziga ko'ra, 2025-yilda global barqaror obligatsiyalar emissiyasi 1 trillion AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda. Prognoz diapazoni shuni ko'rsatadiki, bozorning o'sish potentsiali hali ham yuqori.

Ushbu statistik ma'lumotlar global moliya bozorida barqarorlikka bo'lgan e'tiborning ortib borayotganini va ESG tamoyillarining investitsiya qarorlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Barqaror obligatsiyalar bozori nafaqat hajmi bo'yicha o'smoqda, balki turli xilligi bo'yicha ham rivojlanib, investorlarga kengroq imkoniyatlar yaratmoqda.

Bu boradagi global tendensiyalar fonida O'zbekiston ham ESG tamoyillariga mos keluvchi barqaror investitsiyalarni jalb qilish yo'lida faol qadamlar tashlamoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi izchil o'sib bormoqda. 2017–2024 yillar davomida mamlakatga jami 188 milliard AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritilgan bo'lib, shundan 87 milliard dollari xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi. Faqat 2024-yilning to'qqiz oyida 23,66 milliard dollarlik sarmoya jalb qilingan.

Mazkur investitsiyalarning muhim qismi aynan ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillariga mos sohalarga – yashil energetika, chiqindini energiyaga aylantirish, yashil moliyalashtirish, ESG transformatsiyasi va raqamli infratuzilma yo'nalishlariga yo'naltirilmoqda. Bu yo'nalishlar bugungi kunda nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, yashil energetika sohasida Birlashgan Arab Amirliklarining Masdar kompaniyasi tomonidan Sherobod, Samarqand, Jizzax, Zarafshon va Buxoro viloyatlarida umumiy quvvati 1,6 gigavattidan ortiq bo'lgan quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda. Ushbu loyihalar har yili million tonnalab karbonat angidrid (CO₂) chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Malayziyaning Sunview kompaniyasi tomonidan ikki yirik quyosh elektr stansiyasi loyihasi boshlangani e'lon qilindi. Xitoy, BAA va Janubiy Koreya bilan hamkorlikda 1,3 milliard dollarlik chiqindidan energiya olish loyihalari boshlangan bo'lib, yillik 4,7 million tonna maishiy chiqindidan 2,1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.

Yashil moliyalashtirish sohasida esa Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan loyihalarga sarmoyalar jalb qilinmoqda. Masalan, Hamkorbankka \$10 millionlik kredit ajratilib,

bu mablag'lar iqlimga chidamli texnologiyalarni joriy etishga sarflanmoqda. Shuningdek, UzDIF jamg'armasi "Green Hills Resort" kurorti tomonidan chiqarilgan ESG prinsiplariga asoslangan "yashil" obligatsiyalarni sotib olib, barqaror turizm va toza energiya tizimlarini qo'llab-quvvatlamoda.

ESG transformatsiyasi yo'lida esa yirik davlat korxonalari – "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati", "Navoiy KMK" va "O'zmetkombinat" tomonidan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), karbon chiqindilarini hisoblash, ekologik baholash va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekgidroenergo" esa xalqaro "Sustainable Fitch" reyting agentligi tomonidan 72 ball bilan mintaqadagi eng yuqori ESG reytingiga ega kompaniya sifatida e'tirof etildi.

Bundan tashqari, raqamli infratuzilma sohasida Saudiya Arabistonining DataVolt kompaniyasi bilan hamkorlikda \$5 milliardlik ekologik barqaror ma'lumotlar markazlarini qurish rejalashtirilgan bo'lib, loyiha ESG prinsiplariga asoslangan holda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy darajada esa Kapitalbank va Uzun ekotizimi tomonidan amalga oshirilgan "Havodek zarur" loyihasi orqali 30 dan ortiq hududda havo sifati sensorlari o'rnatilib, 35 mingdan ortiq daraxt ekilgan bo'lib, loyiha "Oltin Chinor" milliy mukofotiga sazovor bo'ldi.

Mazkur tashabbuslar O'zbekistonning ESG tamoyillarini iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga izchil integratsiya qilayotganidan dalolat beradi va xalqaro sarmoyadorlar uchun yangi, barqaror va jozibador investitsion muhit shakllanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa

Jahonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining joriy etilishi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish strategiyasida markaziy o'rin egallamoqda. Global tajriba shuni ko'rsatadiki, ESG standartlarini qo'llayotgan kompaniyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlamoqda, balki moliyaviy natijalari, investitsion jozibadorligi va ijtimoiy ishonchliligi jihatidan ham ustunlikka ega bo'lmoqda. PwC, KPMG, BlackRock va NYU Stern kabi xalqaro manbalar ESG yondashuvining iqtisodiy foydasini raqamlar orqali tasdiqlaydi.

Yevropa Ittifoqining CSRD direktivasi va ISSB tomonidan joriy etilgan IFRS S1–S2 standartlari esa korxonalarning barqarorlik hisobotlarini global darajada yagona tizimga keltirib, ularning mas'uliyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, yashil obligatsiyalar bozori 2024-yilda 1 trillion dollardan oshib, ESG investitsiyalarining jadal o'sishini aks ettirdi.

O'zbekiston kontekstida esa ESG tamoyillari tobora davlat siyosati darajasiga chiqmoqda. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", "O'zbekiston – 2030" dasturi va PF–158-son farmoni asosida ekologik samaradorlik, resurslarni tejash, energiya

tejamkor texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishida amaliy chora-tadbirlar boshlangan. Yirik sanoat korxonalari – “Navoiy KMK”, “Olmaliq KMK”, “O‘zmetkombinat” hamda “O‘zbekgidroenergo”da xalqaro ESG reytinglari bo‘yicha faol ishlarni olib borilmoqda.

Shuningdek, Masdar, Sunview va DataVolt kabi xorijiy investorlarning ishtirokida amalga oshirilayotgan yashil energetika va raqamli infratuzilma loyihalari mamlakatda ekologik barqarorlikni mustahkamlab, iqlim o‘zgarishiga moslashuvni jadallashtirmoqda.

Umuman olganda, ESG tamoyillarini joriy etish O‘zbekiston sanoatini nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki xalqaro raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish yo‘nalishida yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, kelgusida ESG standartlarini huquqiy, institutsional va amaliy jihatdan yanada chuqurlashtirish, hisobot tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektorni faol ishtirokga jalb etish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. PwC. (2023). ESG Reporting 2023 Global Study. Retrieved from <https://www.pwc.com/gx/en/services/sustainability/publications/esg-reporting.html>
2. United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan. (2023). Statement by Matilda Dimovska at the ESG Business Transformation Panel, Tashkent International Investment Forum 2023. Retrieved from <https://www.undp.org/uzbekistan/speeches/statement-matilda-dimovska-panel-session-esg-business-transformation-tashkent-international-investment-forum-2023>
3. Krugman, P. (2010). Building a Green Economy. Grist. Retrieved from <https://grist.org/technology/2010-04-08-paul-krugman-on-building-a-green-economy/>
4. Morningstar. (2023). Green Linings: A Conversation on Climate Change with Jeremy Grantham. Retrieved from <https://www.morningstar.com/sustainable-investing/green-linings-conversation-climate-change>
5. Friedman, T. L. (2008). Hot, Flat, and Crowded: Why We Need a Green Revolution – and How It Can Renew America. New York: Farrar, Straus and Giroux. Quote retrieved from <https://www.goodreads.com/quotes/180026-at-the-end-of-the-day-no-amount-of-investing>
6. Walker-Smith, S. (2023). Join up Words and Actions to Make ESG Simply How You Do Things. The Times. Retrieved from <https://www.thetimes.co.uk/article/join-up-words-and-actions-to-make-esg-simply-how-you-do-things-enterprise-network-mzrm2k8rb>
7. BlackRock. (2022). Larry Fink’s Annual Letter to CEOs. Retrieved from <https://www.blackrock.com/corporate/investor-relations/larry-fink-ceo-letter>
8. KPMG. (2024). Governance Trends 2024: Insights from KPMG Board

- Leadership Center. Retrieved from <https://boardleadership.kpmg.us/research/publications/2024-governance-trends.html>
9. IFRS Foundation. (2024). International Sustainability Standards Board (ISSB): IFRS S1 and S2 Standards. Retrieved from <https://www.sustainabletradeandfinance.com>
10. European Commission. (2024). Corporate Sustainability Reporting Directive (CSRD). Retrieved from <https://www.ecoactiveesg.com>
11. KPMG. (2024). Global ESG Due Diligence Survey 2024. Retrieved from <https://www.kpmg.com>
12. Impa Analytics. (2024). ESG Due Diligence Insights. Retrieved from <https://www.impakanalytics.com>
13. NYU Stern Center for Sustainable Business. (2023). Return on Sustainability Investment (ROSI) Report. Retrieved from <https://www.jsheld.com/insights/articles/esg-performance-and-financial-outcomes>
14. Environmental Finance & S&P Global Ratings. (2024). Green, Social and Sustainability Bond Market Update. Retrieved from <https://www.spglobal.com/ratings>
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). PF–158-son Farmon: “Sanoatni modernizatsiya qilishda ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 11 sentyabr 2023 y.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” va “2023–2026 yillarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash dasturi”. Toshkent.
17. Environmental Finance Bond Database. (2024). Global Green Bond Issuance Statistics. Retrieved from <https://www.environmental-finance.com>
18. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). Investitsiyalar hajmi va manbalari to‘g‘risida hisobot. Toshkent.

GREEN CAR: QISHLOQ XO‘JALIGIDA NAZORATNI YENGILLASHTIRUVCHI AQLLI ROBOT

Qurbonov Shuhratbek Bahtiyorjon o‘g‘li
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti talabasi
E-mail: slavadoriana@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orishdan so‘ng daladagi tuproq namligini o‘lchash va o‘simliklarning to‘liq hamda sog‘lom o‘sishini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan kichik robot – Green Car haqida fikr yuritiladi. Qurilma GPS orqali boshqariladi, quyosh paneli bilan jihozlangan bo‘lib, dala bo‘ylab yurib, yer namligi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu esa sug‘orish jarayonini nazorat qilishni osonlashtiradi, xatoliklarni kamaytiradi va hosildorlikni oshirishga yordam beradi.*

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114